



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - SENTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7901,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,8 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2022 yil yanvar-sentabr


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 17,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 138,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2022-yil yanvar-sentabr

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	13 790,5	14 309,8	519,3
Sharof Rashidov tumani	16 578,9	44 465,9	27 887,0
Zomin tumani	14 702,9	6 291,5	-8 411,4
Jizzax shahri	53 272,7	56 284,4	3 011,7
Zafarobod tumani	10 274,9	9 406,0	- 868,9

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 40,6 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 32,1 % ni va G‘allaorol tumani 10,3 % ni tashkil etdi.

54,4 %

2021- yil

28,0 %

2022- yil


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-sentabr

FHI,% da



2022- yilning yanvar-sentabr oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7416,6 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,8 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-sentabr


92,9 %

2022-yil yanvar-sentabr

93,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida o'rtayuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 25,6 % (16,2 %) ni, o'rtayuqiy texnologiyali – 20,9 % (25,8 %) va quyi texnologiyalisi - 47,3 % (50,8%)ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 26,4 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 230,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,2 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,0 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,4 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,5 % (2021- yilning yanvar –sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	31 083,0	27 700,4	-3 382,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	47 296,9	43 367,8	-3 929,1
Paxta chigiti, t.	48 052,0	46 747,4	-1 304,6
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	3 191,0	7 095,0	3 904,0
Paxta linti, t.	2 810,5	3 644,7	834,2
Trikotaj polotnolar, t.	1 963,0	1 418,0	-545,0

2022- yilning yanvar-sentabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 43,4 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (8,3 % kamaygan), 27,7 ming tonna paxta tolasi (17,4 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 46,7 ming tonna paxta chigiti 4,9 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

91,7 %


Paxta tolasi, t.

82,6 %

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 86,1 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-sentabr oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,2 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 95,1 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 91,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 19,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 135,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,2 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1212,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-sentabr oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 979,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 78,0 % ni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 24,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 115,6 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 107,6 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2239,0 mlrd. so'mni tashkil etdi

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 118,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 %, fizik hajm indeksi 77,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 289,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 16,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 45,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 71,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 309,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,9 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 102,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 233,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 281,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 3,6 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 117,8 % ga o'sishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	194 382,4	229 297,9	34 915,5
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	7,6	3,3	-4,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	54 624,1	52 271,8	-2 352,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	52 550,8	46 434,9	-6 115,9
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	14 488,5	18 508,5	4 020,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 12,6 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 23,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3865,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 148,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 48,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-sentabr

21,9%

2022-yil
yanvar-sentabr

20,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-sentabr

78,1%

2022-yil
yanvar-sentabr



80,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 20,0 % (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 21,9 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 40,4 % ni va Paxtakor tumani 15,7 % ni, Sharof Rashidov tumani 8,8 % ni hamda Zarbdor tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (168,8 %), Sharof Rashidov tumanida (250,9 %) hamda Paxtakor tumanida (201,2 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 25,7 % shuningdek, G'allaorol tumani 43,0 %, ni, hamda Paxtakor tumani 7,3 % ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-sentabr

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 22,1 % shuningdek, G'allaorol tumani 52,8 %, Sharof Rashidov tumani 5,4 % ni tashkil etdi.

1227,5 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-sentabr

1882,3 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-sentabr

3094,2 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 40,4 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 8,8 % ni, Paxtakor tumani esa 15,7 % ni tashkil etdi.



636,9 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-sentabr

642,6 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-sentabr

771,3 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-sentabr



o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 34,7 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 22,1 % ni, Zafarobod tumani esa 10,4 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2020- yil

3970,1 mlrd. so'm

2021- yil

5679,8 mlrd. so'm

2022- yil

7901,9 mlrd. so'm



2020- yil

103,7 %

2021- yil

113,8 %

2022- yil

107,5 %

Jizzax viloyati

107,5

7901,9

Jizzax shahar

108,1

2744,7

Arnasoy

98,5

147,0

Baxmal

103,6

67,5

G'allaorol

170,3

1746,1

Sharof Rashidov

106,1

340,6

Do'stlik

99,6

571,1

Zomin

99,6

225,3

Zarbdor

104,8

237,0

Zafarobod

109,0

822,2

Mirzacho'l

100,2

114,4

Paxtakor

113,6

426,8

Forish

116,0

418,9

Yangiobod

102,5


40,3

FHI, % da

mlrd. so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (14 544,0 ming so'm), Zafarobod (15 821,8 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (9 678,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 430,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 051,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 656,6 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 5 266,6 ming so'mni, Paxtakor tumanida – 3 619,0 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 9 219,8 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



o'sish sur'ati

ming. so'm

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3995 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1173 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,4 % i) Jizzax shahriga, 693 tasi (17,3 %) Sharof Rashidov tumaniga, 419 tasi (10,5 %) G'allaorol tumaniga, 330 tasi (8,3 %) Zomin tumaniga va 222 tasi (5,6 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil
628 dona

2021- yil
706 dona

2022- yil
696 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil
3 333 dona

2021- yil
3 874 dona

2022- yil
3 995 dona

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 69 ta loyiha bo'yicha 3722,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 34,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 961 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 159,8 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.